

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## TILNING FONOLOGIK NAZARIYASI

Abduqodirova Dildora

Qo'ldosheva Dilorom

**Anotatsiya:** Fonologik nazariyalar haqida tushuncha. Tilning fonologik va morfologik xususiyatlari. Tilshunos olimlarning fonologik nazariya haqidagi fikrlari.

**Kalit so'zlar:** Fonema, talaffuz, tovush, morfema, intonatsiya, cho'ziqlik.

Hozirgi davrga qadar asosan quyidagi fonologik nazariyalar mavjud (ularni xronologik tartibda sanab, fonemaga bergan ta'riflarini qisqacha izoxlaymiz):

Boduen de Kurtenening psixologik fonema nazariyasi. Bu nazariyaga asosan «fonema-nutk tovushlarining psixik ekvivalenti» deb karaladi. Bunda fonema bir yoki bir kancha tovushlar doirasida talaffuz etiluvchi artikulyasion va akustik tasavvurlarning yigindisi bulib, psixologik jixatdan esa ma'lum bir umumiy tushuncha yoki tasavvur xosil kiladi, deb kursatiladi. Boshkacha aytganda, fonema tovush xakidagi umumiy tasavvur bulsa, tovush esa fonemani talaffuz kilishdagi anik (konkret) tasavvurga tugri keladi. Keyinchalik I.A.Boduen de Kurtene fonemalarni tildagi eng kichik ma'nodor birliklar xisoblangan morfemalarning komponenti sifatida karagan edi. Chunki Boduen fonemalarning morfemalardagi urin almashuvi ma'noni farklashga xizmat kilishini xisobga olgan edi.

Boduenning keyingi karashi asosida morfologik fonema nazariyasi vujudga keldi. Bu nazariya keyincha fonetikaning ikki kismga-morfologik fonetika (fonema, bugin, urgu xamda morfema va suzlardagi tovush almashuvi) va sintaktik fonetikaga (intonasiya) bulinishiga olib keldi.

Boduen de Kurtenening shogirdi mashxur tilshunos olim, akademik L.V.Shcherbaning fizik (yoki akustik) fonema nazariyasi. Bu nazariyaga asosan fonema tildagi eng kichik umumiy akustik tasavvur bulib, usha tildagi ma'no

tasavvurlari bilan boglanishga kodirdir. Tasavvur tushunchasi L.V.Shcherbaning fonemaga psixologik jixatdan karashdan voz kechmaganini kursatadi. Keyinchalik L.V.Shcherba kishi nutkida juda kup xil tovushlar borligi, ular uncha kup bulmagan umumiy tovush tiplariga birikishi va bu suz xamda suz formalarini farklash uchun xizmat kiluvchi tovush tiplarini fonemalar deb atadi. Nutk jarayonida anik talaffuz kilinuvchi yakka tovushlarni esa fonemalarning ottenkalari deb atadi. Bu ottenkalar ichidan aloxida biri akustik va fiziologik jixatdan boshka ottenkalarning kup xususiyatlarini uzida mujassamlashtirgan buladi. Ottenkalarning bunday «tipik vakili» umuman fonemaga yakin turadi va yakka tovushlarning aloxida birligini tashkil etadi. Bu ta'rifda dialektik materializmning umumiylik, yakkalik va aloxidalik kategoriyasi muxim urin tutadi.

Ingliz fonetisti D.Djounzning akustik fonema nazariyasi, D.Djounz «fonema» tushunchasini akademik L.V.Shcherbadan urganganligini tan oladi. U fonemani «bir xil tovushlarning artikulyasion va akustik oilasi» deb ta'riflaydi va fonemaning asosiy (nutkda eng kup ishlatiluvchi) va yordamchi (u yoki bu urinda ishlatiluvchi) «a'zolari», ya'ni vakillari borligini kursatadi. Bu nazariyada fonema va tovush urtasidagi fark kursatilmaydi. Ya'ni bir tovush doirasida aytiluvchi barcha tovushlar bir fonemaga «oila» sifatida birlashadi. (Masalan, I1, I2, I3...-I fonemasi). Ma'lumki, fonema bir tovush doirasidan chikib, bir kancha bir xil tovushlarda namoyon bula oladi. Bu fonologik nazariya chet el tilshunosligida (ayniksa, Angliya,AkShda) ishlatiladi.

Boshka fonologik nazariyalar kuyidagilardir:

U.Tvodellning (AkSh) mikro va makrofonema nazariyasi.

N.S.Trubeskoyning fonologik nazariyasi (ba'zan «Praga fonologik maktabi nazariyasi yoki «relyasionfizik nazariya» deb ataladi.).

Deskriptiv fonologiya nazariyasi.

Glossematik fonologiya nazariyasi. L.Elimslev (Daniya).

Rus tilshunosligida uch fonologik nazariya:

Moskva fonologiya maktabi (MFM);

Leningrad fonologiya maktabi (LFM) nazariyasi;

S.I.Bernshteynning fonologik nazariyasi.

Dixotomik fonologiya nazariyasi.

Ikki pogonali fonologiya nazariyasi.

Generativ fonologiya nazariyasi va boshkalar.

Yukoridagi fonologik nazariyalar ichida ba'zi okimlar va aloxida fikrda bulgan tilshunoslar xam bor. Bu, ayniksa, tarixiy (diaxronik) fonologiya masalalarini urganishda yakkol kurinadi. Agar ikki tovush bir xil xolatda («pozisiya»da) uchrasa va suzning ma'nosini uzgartirmay, bir-birining urnini egallay olsa, bunday tovushlar bir fonemaning fakulitativ variantlari xisoblanadi. Masalan: uzbek tilida biror unli tovushni, aytaylik, (i)ni shu urinda chuzik (i) bilan almashtirib aytsak, suzning ma'nosi uzgarmaydi (ip-i: p). Birok chuzik (i:0 tovushi stilistik jixatdan axamiyatli xisoblanadi. Bunday tovush fonemaning stilistik varianti deb ataladi. Uzbek adabiy tilida unlilarning chuzik-kiska talaffuzi fonologik jixatdan axamiyatsiz xisoblanadi. Chuziklik gapiruvchining xis-xayajonini kursatuvchi fonetik-stilistik belgidir.

Agar ikki tovush bir xil xolatda bulib, ularning uzaro urin almashuvi suz ma'nosini uzgartira olsa, bunday tovushlar ikki xar xil fonemaning fonetik jixatdan vakili sifatida karaladi. Masalan, «bur» suzidagi (u) urniga (o) tovushi kuyilsa, «bor» suzi kelib chikadi, ya'ni suzning ma'nosi uzgaradi («bur-bor»). Demak, bu suzlardagi (u) va (o) tovushlari ikki fonemaning (u) va (o) ning vakillaridir.

Agar ikki akustik (yoki artikulyasion) jixatdan karindosh tovushlar (masalan, a<sub>1</sub>, a<sub>2</sub>, a<sub>3</sub> ...) vakt bir xolatda uchramasa, ular bir fonemaning kombinator variantlari xisoblanadi. Masalan, uzbek tilida (x) tovushi ikki unli urtasida jarangli, boshka xolatlarda jarangsizdir.

Demak, jarangli va jarangsiz (x) tovushlari bir fonema (x) ning kombinator variantlaridir. N.S.Trubeskoy taklif etgan bir mustakil fonema va fonemalar birikmasini aniklash buyicha koidalar ichida quyidagilar aloxida ahamiyatga egadir:

Komponentlari ikki buginga ajralmovchi tovushlar birikmasini bir mustakil fonema deb xisoblash mumkin. Uzbek tilida (dj),(tsh) va rus tilidan kirgan (ts) tovush birikmalari suzlarda ikki buginga ajralmaydi va shu tufayli aloxida affrikat fonemalar (dj,ch,s) deb karaladi. Bu koidaga kushimcha kilib, affrikatlarni mustakil fonemalar deyish uchun ularning bir yula portlovchi va sirgaluvchi fonemalar bilan oppozitsiyaga kirishi (d-dj-j), (t-ch-sh) xisobga olinadi.

Ikkinchi koida birinchini tuldirdi. Tovushlar gruppasini birlikda artikulyasiya qilish mumkin bulsa va talaffuz davomida asta-sekin susayish yoki kiskarish ruy bersa, bunday tovushlar gruppasi bir mustakil fonema xisoblanadi. Yukoridagi affrikatlarning birinchi elementlari portlovchi talaffuzdan boshlanib, asta-sekin susayib sirgaluvchiga kuchadi. Demak, bu jixatdan xam ularning xar ikki elementi birlikda talaffuz kilinadi va artikulyasion tomondan xam ular mustakil fonemalar xisoblanadi. Ba'zi tillardagi (masalan, ingliz, latish va boshka tillarda) ikki tovush birikmasidan tashkil topgan diftonglar xam yukoridagi ikki koidaga buysunsa, mustakil fonemalar xisoblana oladi. Ular quyidagi uchinchi koidaga xam tugri keladi. Chuzikligi usha tildagi boshka fonemalarning chuzikligiga tugri kelgan tovush birikmalari bir fonemaning vakili sifatida karalishi mumkin. Odatda, diftonglarning chuzikligi usha tildagi (masalan, ingliz tilida) chuzik unli fonemalarning chuzikligiga teng keladi.

Bu koida yukoridagi uch koidani uz ichiga oladi va usha fonemalar uchragan xolatda boshka fonemalar birikmasi uchramasligini xisobga oladi. Shu koidalar asosida uzbek tilidagi (i-y), (o-a), (a-y), (u-y),(o-v) kabi tovush birikmalarini diftonglar sifatida mustakil fonemalar deb bulmaydi. Chunki ularning xar ikki elementi ba'zi suzlarda ikki buginga ajrab ketadi va artikulyasion jixatdan unli – undosh yoki yarim unli birikmasi bulib, bir artikulyasiyaga ega emas. Ular



uchragan xolatda boshka fonemalar birikmalari xam uchraydi. Shu tufayli bu birikmalarning ba'zi suzlarda bir buginda bulishini xisobga olib (masalan, «choy, loy, tiymok, suymok, tarnov» kabi), ularni «aldamchi diftonglar» («lojnue diftongi») deb karash mumkin.

Bunday «aldamchi diftong»larda bugin xosil kilishda birinchi unli element emas, balki ikkinchi element bulgan undosh yoki yarim unli -sonor tovush asosiy vazifani bajaradi.

Bir tovush yoki tovushlar birikmasi yukoridagi koidalarga buysunsa, ular bir-birlariga nisbatan fonemaning fakulitativ yoki kombinator variantlari munosabatida bulsa, bunda usha tovushlar gruppasi va yoxud bir tovush usha fonemalar birikmasining vakili sifatida karalishi mumkin. Bu koida xam avvalgi koidalarga zid keladi. Chunki avvalgi (1-4) koidalarda N.S.Trubeskoy mustakil fonemalarni aniklashga uringan bulsa, endi usha koidalarga buysunuvchi tovushlar gruppasi yoxud bir tovushni fonemalar birikmasining vakili sifatida karashni taklif etadi. Birok, bu kamchiliklarga karamay, N.S.Trubeskoyning mustakil fonema va fonemalar gruppasini aniklash buyicha koidalari xar xil tillardagi xususiyatlarni aniklashda katta axamiyatga egadir.

N.S.Trubeskoy tilning fonologiya va morfologiya boskichlari urtasida morfonologiya boskichi urin olishini va u fonologik vositalarning morfologik jixatdan ishlatilishini tekshirishi zarurligini kursatdi. (Morfonologiya xakida tula ma'lumot keyinrok beriladi). Morfonologiyaning asosiy birligi deb, fonemalarda urin almashuvchi «kompleks obraz-morfonema»ni atadi. Masalan, rus tilida «ruka-ruchka, beregu-berechi» suzlaridagi morfemalarda k)ch, g)ch fonemalarining almashuvi «morfonema» deb karaladi. Uzbek tilida bunday misollar kisman kamrok: sust-susaymok, uki-ukuv, sez-seskan, ong- angla kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Аванесов Р. И “Фонетика современного русского литературного языка “. MGU, 1956.

Ma'ktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

Ахманого О. С Фанология, Морфонология, Морфология. MGU, 1966.

Баскаков. Н. А “Введение и изучение тюрских языков”М., 1969.

Зиндер Л. Р “Общая фонетика”LGU, 1960.

Реформатский А. А “Введение и языковедение”М., 1967.